

## ALISHER NAVOIY “XAMSA” SIDA KELTIRILGAN SHAXS NOMLARI.

*FarDu Filologiya fakulteti 2-bosqich  
talabasi Isaqova Shukronaxon*

Milliy adabiyotlar rivoji, taraqqiyoti, ravnaqi va yuksalish bosqichlari haqida so’z ochilganda, odatda birinchi navbatda, hajman yirik, mazmunan ko’p yo’nalishli, hayot voqeа-hodisalarini keng qamrovda ifodalovchi yoki yuksak muhabbat tarixini o’zida mujassam etuvchi asarlar eslanadi, tilga olinadi.

Haqiqatan, Hazrat Navoiyning “Xamsa”si ham adabiy hayotda, ijtimoiy ong taraqqiyotida ulkan tarixiy voqeа bo’la olgan asar hisoblanadi.

“Xamsa”da Alisher Navoiy ideallari o’zining badiiy ifodasini topadi. Balki shuning uchundir, ushbu ulkan asar to shu kungacha bo’lgan katta muddat davomida ham o’z qadr-qimmati, ahamiyatini zarracha ham yo’qtogani yo’q. Necha davrlar o’tib kelmoqdaki, asarga bo’lgan qiziqish, hurmat, e’tibor ortgandan ortib bormoqda. Asarda bir necha obrazlar nomlariga duch kelamiz. Ularni quyidagicha tasniflab, mazmun-mohiyati, ahamiyati, o’ziga xos jihatlarini o’rganish mumkin:

- payg’ambarlar obrazlari tavsifi;
- tarixiy shaxslar obrazlari tavsifi;
- mifologik obrazlar tavsifi;
- an’anaviy obrazlar tavsifi.

Asarda bir qancha obrazlar uchraydi. Obrazlar orqali nafaqat qahramon hayoti, ruhiy holati, xarakteri ochib beriladi, balki shu bilan birga o’sha davr holati, shu obrazlar bilan bog’liq voqealar, ulardagи turli qirralar, boshqa qahramonlar kechinmalari va asar syujeti ham tasvirlanadi.

Bilamizki, “Xamsa”ning avvalgi dostoni bo’lmish “Hayrat ul-abror”da ma’lum bir yagona voqeа yoki aniq obrazlar taqdiri, yoki qahramonlar sargushatlari bilan bog’liq voqealar hikoya qilinmaydi. Shuning uchun ham asarda falsafiy-tarbiyaviy hikoyatlar davomida payg’ambarlar, avliyolar, shayxlar, so’fiylar, hukmdorlar, olimlar-u shoirlar nomlari qayd etiladi.

Keyinggi dostonlarda esa boshqacha, ularda ma’lum qahramonlar hayoti, taqdiri, ular bilan bog’liq voqealar, sarguzashtlar ifodalanadi. Asardagi obrazlar muallif tomonidan qahramon hayoti, taqdiri, ichki kechinmalariga bog’liq hilda tanlangan. Masalan, ijobiy obrazlar ismlari ijobiy, rang-barang bo’yoq dorlikka ega hisoblanadi. Ismning atash va tagv ma’nosida ijobiy xususiyatlar vaks etgan bo’ladi.

“Xamsa”ning keyinggi dostoni hisoblangan “Farhod va Shirin”da Farhod obrazini asosiy qahramon qilib oldi. Uni ijobiy qahramon bilib, komil inson

darajasiga ko'tardi. Ushbu qahramon ismining qo'yilish sabablari ham asarda ochiqlangan. Navoiy bunda kitobat badiiy san'atidan foydalanib, o'zining yuksak badiiy mahoratini namoyon etgan:

Firoqu rashk hajr-u oh ila dard,  
Biror harf ibtidodin aylabon fard.  
Qo'yib yuz himmat-u iqbol-u davlat,  
Hamul far soyasidin topodi ziynat.

"Farhod obrazida o'z davrining ilg'or g'oyalarini kuylaydi, xalq ommasiga xos qator olivjanob xususiyatlarni ideallashtiradi" (Hayitmetov A. Navoiyning Ijodiy metodi masalalari. 93-bet). Demakki, Farhod ismi aqlii, farosatli va shu bilan birga yuksak qalb, ishq sohibi ekanligidan darak beradi.

Ushbu dostonda xamsachilik an'analariga muvofiq tarzda qo'llanilgan ismlar ham mavjud. Xususan, Xisrav, Shirin, Bahrom, Shopur.

Navoiy dostonlaridagi qahramonlar nomlarida yana bir sezilarli va e'tiborli jihat tarixiy shaxslar, ya'ni payg'ambarlar, avliyolar, hukmdorlar, donishmand va faylasuflar nomlari keltirilganidir. Sulaymon alayhisallom, Aflatun< Suqrot va boshqalar shular jumlasidandir. Baytlarda talmeh san'ati orqali tarixiy shaxslar va ular bilan bog'liq voqealarga ishora qilinadi:

Chu septi dahr tun mushkiga kofir,  
Sochildi Ahraman anfosidan nur.  
Tutob holig'a tun ifriti motam,  
Sulaymoni falak ko'rguzdi xotam.

Asarda juda ko'p an'anaviy, tarixiy shaxs nomlari keltirilgan. Navoiy asarlari kemgroq o'rganilsa, shaxs nomlari va ular bilan bog'liq asar voqealari va ularning nomlari, xarakterlari, kechinmalari, hayot tarzlari yanada mukammalroq o'rganilishi va o'rgatilishi mumkin.

Navoiy yaratgan obrazlar o'z fel-atvoriga, o'z holati va o'ziga xos individualligiga ega hamda shunga monand tarzda nomlangan. Qolaversa qahramonlar nomlari ularning dunyoqarashi, maqsad va kechinmalarini ochib beradigan darajada mahurat bilan tanlangan.